

**O'ZBEKISTONDA IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH**

***Qodirov Xolmirza Muhammadali o‘g‘ili***

*Farg‘ona politexnika instituti Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) 1-kurs  
talabasi .*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada yurtimizda iqtisodiy tizimning rivojlanish istiqbollari yoritilgan bo‘lib, mamlakatimizda ushbi tizimda amalga oshirilayotgan islohatlar taxlil qilindi.

**Kalit so‘zlar:** Iqtisodiyot, Harakatlar strategiyasi, tendentsiya, raqamli iqtisodiyot, makroiqtisodiyot.

**Аннотация:** В данной статье описываются перспективы развития экономической системы в нашей стране, а также анализируются реформы, реализуемые в этой системе в нашей стране.

**Ключевые слова:** Экономика, Стратегия действий, тренд, цифровая экономика, макроэкономика.

**Annotation:** This article describes the prospects for the development of the economic system in our country, and analyzed the reforms implemented in this system in our country.

**Key words:** Economy, Action strategy, trend, digital economy, macroeconomics.

**Kirish.** Mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi “Harakatlar strategiyasi”[1] O‘zbekiston xalqi farovonligi va davlatimiz iqtisodiy qudratini mustahkamlash yo‘lida yangi taraqqiyot bosqichida Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarni davom ettirmoqda. Mustaqillikka erishganimizdan to hozirgi kunga qadar yuqoridaq ikkita tamoyilga tayangan holda iqtisodiyotni rivojlantirib, xalq farovonligini ta’minlab kelinmoqda. Jaxondagi innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishi bugungi kunlarda jadal sur’atlar bilan namoyon bo‘lmoqda. Innovatsion iqtisodiyotning dinamik rivojlanish tendentsiyasi iste’molchilar talabini to‘liqroq qondirish va iqtisodiyotning zamonaviy tarmoqlarida mehnat unumdarligini yuqori darajada oshirish imkonini beradi.

Albatta ushbu yillarda amalga oshirilgan ishlar mamlakatda iqtisodiyotni jadal sur’atlar bilan rivojlaishiga kata yo‘l ochdi.

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti 2018 yil 28 dekabrdagi 2019 yil uchun eng muhim ustivor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Muroja’tnomasida ham mamlakatimizda milliy iqtisodning rivojlanishi bo‘yicha quyidagilarni fikrlar ilgari surilgan edi: “Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilanishini ko‘zda tutadigan “Raqamli iqtisodiyot milliy kontseptsitasi”ni ishlab

chiqishimiz kerak. Shu asosda “Raqamli O’zbekiston-2030” dasturini hayotga tadbiq etishimiz zarur. Raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga o’stirish, korruptsiyani keskin kamaytirish imkonini beradi. Nufuzli halqaro tashkilotlar o’tkazgan tahlillar ham buni tasdiqlamoqda. Shuning uchun Hukumatga ikki oy muddatda raqamli iqtisodiyotga o’tish bo‘yicha “yo‘l haritasi”ni ishlab chiqish topshiriladi. Bu borada axborot havfsizligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratish zarur”[2]. Ushbu sohani jadal rivojlantirish albatta mamlakatda katta iqtisodiy davrani yaratish hamda undagi faollarni investitsion muhitga olib kirish borasidagi asosiy qadam bo‘ladi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro reyting va indekslar bilan ishslashda ilmiy salohiyat hamda amaliy faoliyat uyg‘unligini ta’minlash choratadbirlari to‘g‘risida” 2022 yil 18 maydagi PQ-246-son Qarorida ta’kidlanishicha, 2022-2030 yillarda raqobatbardosh sanoat unumdorligi indeksida O’zbekistonning o‘rnini yaxshilash strategiyasi, 2022-2026-yillarda raqobatbardosh sanoat unumdorligi indeksida O’zbekiston o‘rnini yaxshilash strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi va iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi bo‘yicha yuqori va o‘rtta-yuqori texnologiyali mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan tarmoq va sohalarda faoliyat yurituvchi davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari ro‘yxati tasdiqlanadi[3]. Mazkur tasdiqlangan boshqaruv organlari ro‘yhati iqtisodiy tizimning eng baquvvat tomiri bo‘lishi ko‘zda tutilgan.

Mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev raisligida 2022-yilning 14-mart kuni iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, davlat korxonalarini transformatsiya qilish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi o’tkazilgan edi. Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotini rivojlantirish, raqobat muhitini yaxshilash maqsadida davlat korxonalari transformatsiya qilinmoqda. Bundan tashqari iqtisodiyotda 2022- yilning birinchi choragi yakunida kutilayotgan natijalar tahlil qilindi. Yangi korxonalarni foydalanishga topshirib, ish o‘rinlari tashkil etish, aholi daromadlarini oshirish va ijtimoiy qo’llab-quvvatlash masalalariga alohida e’tibor qaratildi[4]. Ushbu soxalardagi amalga oshirilgan ishlar samaradorligi o‘laroq bugun mamlakatimizda ishsizlik soni bir qancha barobarga qisqardi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

So‘nggi yillarda O’zbekistonning iqtisodiy siyosatini ishlab chiqishda innovatsion rivojlanishining strategik yo‘nalishiga tobora ko‘proq e’tibor berilmoxda, unga ko‘ra mamlakatning ilmiy-texnik salohiyatidan faqat samarali va tizimli foydalanishgina uning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashi mumkin. Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini jadallashtirish uzoq muddatli istiqbolda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasining kelajakda mamlakatni yanada rivojlantirishga mo‘ljallangan strategik vazifalarida “2030-yilga borib mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot hajmini kamida 2 barobar oshirish...” masalasining qo‘yilishi va Prezident Sh.M.Mirziyoyevning – “Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o‘sishning yuqori sur’atlarini saqlab qolish – eng muhim ustuvor vazifamizdir” – deb ta’kidlashlaridan hamda “2017–2021- yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”da “yalpi ichki mahsulotning yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minalash” vazifasining belgilab qo‘yilishi Respublikada ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minalash naqadar dolzarb masalalardan ekanligi ko‘rinib turibdi.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldaggi PF-4947sonli Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 dekabrdagi 2019 yil uchun eng muhim ustivor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Muroja’atnomasi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 18.05.2022. PQ-246-soni.
4. Xalq so‘zi online. 2022-yil 14-mart. Iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha qo‘sishma chora tadbirlar belgilandi.